

SHARQ MUTAFAKKIRLARI QARASHLARIDA HARBIY XIZMATCHI SHAXSIDA FAOLLIKNI IJTIMOY-PSIXOLOGIK DETERMINANTLARINI SHAKLLANISHI.

Umarov Davron Baxtiyorovich

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti

magistratura tinglovchisi, kapitan

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada Sharq mutafakkirlari Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino va Abu Rayhon Beruniyning harbiy xizmatchi shaxsida faollikning ijtimoiy-psixologik determinantlarini shakllanishi haqidagi qarashlari tahlil qilingan. Maqolada Sharq mutafakkirlari ta'limotida harbiy boshqaruvning ma'naviy-axloqiy, intellektual, emotsional-iroda, ijtimoiy-kommunikativ va motivatsion determinantlari hamda adolat tamoyilining markaziy o'rni tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Harbiy xizmatchi shaxsi, faollikning ijtimoiy-psixologik determinantlari, Sharq mutafakkirlari, ma'naviy-axloqiy tarbiya, harbiy boshqaruv.

Bugungi kunda mamlakatimizda harbiy islohotlar amalga oshirilmoqda, harbiy ta'lim tizimi takomillashtirilayotgan hozirgi davrda milliy ma'naviy qadriyatlar va Sharq falsafasi merosiga asoslangan holda harbiy kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Harbiy xizmatchi shaxsining professional faolligi, uning ijtimoiy-psixologik determinantlari va shaxsiy xususiyatlarining shakllanishi masalalari harbiy psixologiyaning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Sharq mutafakkirlari tomonidan asrlar davomida ishlab chiqilgan harbiy axloq, harbiy rahbarlarning ruhiyati va faollik konsepsiyalari bugungi kunda ham o'z ilmiy-amaliy ahamiyatini yo'qotmagan.

Sharq mutafakkirlari tomonidan harbiy xizmatchi shaxsida faollikning ma'naviy-axloqiy va ijtimoiy jihatlari tahlil qilingan. Harbiy xizmatchi shaxsining faolligi nafaqat jismoniy tayyorgarlik, balki ma'naviy-ruhiy kamolot, ijtimoiy mas'uliyat va axloqiy qadriyatlar asosida shakllanadi.

Sharq mutafakkirlaridan Abu Nasr Farobiy (870-950) o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida askarlarning xususiyatlarini tavsiflab, harbiy faollikning ijtimoiy-psixologik asoslarini ko'rsatib bergan. U "Al-muallim as-soniy" (Ikkinchi muallim) va "Sharq Arastusi" degan nomlarga sazovor bo'lgan buyuk mutafakkirdir. Farobiyning dunyoqarashi, uning jamiyat va axloq to'g'risida yaratgan yaxlit ta'limoti ilk o'rta asrlar va keyingi davrlarda ijtimoiy-falsafiy, siyosiy va axloqiy fikr rivojida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Abu Nasr Farobiyning fikricha, harbiy xizmatchi shaxsining faolligi uchta asosiy determinantga ega:

birinchidan, nazariy bilim ya'ni falsafiy va ilmiy ta'lim;

ikkinchidan, amaliy ko'nikmalar ya'ni harbiy mahorat va jismoniy tayyorgarlik;

uchinchidan axloqiy fazilatlar ya'ni adolat, jasorat va hikmat kabi sifatlar. [1]

Abu Nasr Farobiy fikricha, harbiy rahbar avvalo o'zini ma'rifatli inson sifatida tarbiyalashi, so'ngra harbiy ko'nikmalarni egallashi lozim. Mazkur yondashuvlar bugungi kunda harbiy psixologiya, pedagogikada ham qo'llanilmoqda, chunki harbiy xizmatchi shaxsining faolligi uning shaxsiy qadriyatlar tizimiga asoslanadi. Farobiy esa harbiy xizmatchi avvalo ziyoli, ma'rifatli va falsafiy fikrlaydigan shaxs bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi.

Shuningdek, Farobiy nazariy bilimlar bilan birga amaliy ko'nikmalarning ham muhimligini ta'kidlab, harbiy rahbar harbiy mahoratni mukammal egallashi, turli harbiy qurollardan foydalana bilishi, taktik va strategik malakaga ega bo'lishi, jismoniy jihatdan tayyorlangan va chidamli bo'lishi zarur. Biroq Farobiy amaliy ko'nikmalarni nafaqat texnik jihat sifatida, balki aqliy kamolot bilan birlashgan holda qaragan. Uning fikricha, eng yaxshi harbiy xizmatchi - bu nazariya va amaliyotni birlashtirgan, bilim va tajribani muvozanatli rivojlantirgan shaxsdir.

Biz ham Farobiyning fikrlarini qo'llab-quvvatlagan holda jismoniy tayyorgarlik ham muhimligini, harbiy xizmatchi kuch-quvvat, chidamlilik, tezkorlik va

¹ Мухитдинова Ф.А. Изучение наследие Абу Насра Фараби и актуальность для развития науки народов Центральной Азии // Мировая наука. – 2021. – №7(52). – С. 70-83.

moslashuvchanlikka ega bo'lishi tarafdorimiz. Biroq jismoniy tayyorgarlik o'z-o'zidan asosiy maqsad emas, balki yuqori vazifalarni bajarish uchun vositadir. Harbiy xizmatchi o'z jismoniy imkoniyatlarini to'g'ri boshqarishi, ularni oqilona ishga solishi va haddan oshmasligi lozim.

Farobiy ta'limotining eng muhim jihati axloqiy fazilatlarni harbiy faollikning asosiy sharti sifatida ko'rsatishidir. Uning fikricha, harbiy xizmatchi quyidagi axloqiy fazilatlarga ega bo'lishi shart: birinchidan, adolat - harbiy xizmatchi o'z vazifalarini bajarishda adolatli bo'lishi, kishilarga nisbatan xolis munosabatda bo'lishi kerak.

Ikkinchidan, jasorat - harbiy xizmatchi xavfli vaziyatlarda ham o'z burchini bajarishi, qo'rquvni yengishi va mardona harakat qilishi lozim.

Uchinchidan, hikmat (donolik) - harbiy xizmatchi donishmandlikga ega bo'lishi, vaziyatni to'g'ri baholashi, uzoqni ko'ra bilishi va dono qarorlar qabul qilishi kerak.

Professor M.M. Xayrullayev ta'kidlashicha, Farobiyning harbiy rahbar haqidagi tasavvurida axloqiy kamolot va ijtimoiy mas'uliyatning birligi ustunlik qiladi^[2]. Ya'ni harbiy xizmatchi nafaqat davlatni tashqi dushmandan himoya qiluvchi kuch, balki jamiyatda adolatni ta'minlovchi va axloqiy me'yorlarni saqlovchi subyekt hisoblanadi.

Fikrimizcha Farobiyning eng muhim xizmati shundaki, u harbiy rahbar uchun ma'naviy-axloqiy tarbiyaning ustuvorligini isbotladi. Uning fikricha, qanchalik harbiy mahorat va jismoniy kuch-quvvat bo'lmasin, agar harbiy xizmatchi axloqiy fazilatlarga ega bo'lmasa, u jamiyat uchun xavfli bo'lishi mumkin. Shu sababli harbiy rahbar avvalo o'zini ma'rifatli, ma'naviy yetuk va axloqiy inson sifatida tarbiyalashi, so'ngra harbiy ko'nikmalarni egallashi zarur.

Abu Ali ibn Sino (980-1037) Sharq Uyg'onish davrining buyuk allomasi bo'lib, Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida tug'ilgan. Ibn Sino qomusiy olim sifatida jahon fanlar tarixida tan olingan, chunki u o'z davridagi mavjud fanlarning qariyb barchasi bilan shug'ullangan va ularga oid asarlar yozgan. Zamondoshlari Ibn Sinoni "Shayx ar-Rais" (donishmandlar sardori, allomalar raisi) deb ataganlar. Turli

² Хайруллаев М.М. Мировоззрение Фараби и его значение в истории философии. – Ташкент: Фан, 1971. – С. 234-267.

manbalarda uning 450 dan ortiq asar yozganligi qayd etilgan, lekin bizgacha ularning 242 tasi yetib kelgan. Shulardan 80 tasi falsafaga, 43 tasi tabobatga oid bo'lib, qolganlari mantiq, psixologiya, tabiiyot, astronomiya, matematika, musiqa, kimyo, axloq, adabiyot va tilshunoslikga bag'ishlangan^[3].

Ibn Sinoning harbiy boshqaruvga oid qarashlarini uning psixologiya va tibbiyot sohasidagi fundamental asarlarida keltirilgan.

Ibn Sino psixologiya sohasiga katta hissa qo'shib, insonning mijozlari masalasi bo'yicha o'z ta'limotini ishlab chiqqan. Bu ta'limot harbiy xizmatchilar uchun ham muhim ahamiyatga ega, chunki harbiy rahbarlar o'z qo'l ostidagilarning psixologik xususiyatlarini bilishlari va ularga mos ravishda yondashuv qo'llashlari zarur. Bu prinsip harbiy faoliyatda ham to'liq qo'llaniladi - nazariy tayyorgarlik va amaliy ko'nikmalar bir-birini to'ldirishi lozim.

Abu Rayhon Beruniy (973-1048) Xorazmning qadimiy poytaxti Kot shahrida dunyoga kelgan buyuk qomusiy olim bo'lib, uning ilmiy merosi 150 ta asarni o'z ichiga olgan^[4]. Beruniy "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida turli xalqlar harbiy an'analari va tarbiyasini qiyosiy tahlil qilgan. Beruniy ta'kidlashicha, harbiy xizmatchi faolligi uning tug'ilib o'sgan muhit, milliy qadriyatlar va ijtimoiy-madaniyati bilan chambarchas bog'liq. Beruniy birinchi bo'lib harbiy faollikning madaniy-antropologik determinantlarini o'rganish zarurligini ko'rsatdi. Uning tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, har bir xalqning o'ziga xos harbiy an'analari, jangchi tarbiyasi tizimlari va professional faollikni shakllantirishning milliy usullari mavjud. Beruniy fikricha, harbiy xizmatchi shaxsining faolligi psixologik qonuniyatlarga bo'ysunishidan tashqari, milliy-madaniy xususiyatlarga ham bog'liq.

Sharq mutafakkirlarining harbiy boshqaruvda faollikning ijtimoiy-psixologik determinantlari haqidagi qarashlari bir necha asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

Birinchi, **ma'naviy-axloqiy determinantlar** - Farobiy, Ibn Sino va Beruniy barcha ta'limotlarida harbiy rahbar shaxsining faolligi uchun ma'naviy-axloqiy

³ https://uz.wikipedia.org/wiki/Abu_Ali_ibn_Sino

⁴ B. Nurxonov "Abu Rayhon Beruniyning hayoti va ijodi" Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, vol. 1, no. 5, 2021, B. 875-882.

qadriyatlarning asosiy ahamiyatga egaligi ta'kidlanadi. Harbiy rahbar adolat, rahm-shafqat, poklik va halollik kabi fazilatlarga ega bo'lishi, o'z kuchidan faqat haq yo'lda foydalanishi zarur.

Ikkinchidan, **intellektual determinantlar** - Ibn Sino va Beruniy asarlarida aqliy rivojlanish, tahliliy fikrlash, tezkor qaror qabul qilish va strategik rejalashtirish qobiliyatlarining muhimligi ko'rsatilgan.

Uchinchidan, **emotsional-iroda determinantlari** - Ibn Sinoning psixologik ta'limotida irodaning mohiyati va uni mustahkamlash usullari, o'z-o'zini boshqarish, emotsional barqarorlik masalalari batafsil yoritilgan.

To'rtinchidan, **ijtimoiy-kommunikativ determinantlar** - Farobiy "Fozil odamlar shahri" konsepsiyasida harbiy xizmatchi jamiyatning ajralmas qismi va uning faolligi ijtimoiy manfaatlarga xizmat qilishi kerakligi ta'kidlangan. Harbiy xizmatchi jamoa a'zosi sifatida hamkorlik qilish, boshqalar bilan samarali muloqot o'rnatish va ijtimoiy mas'uliyatni his qilish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Beshinchidan, **motivatsion determinantlar** - Farobiy va Beruniy asarlarida harbiy faollikning ichki motivatsiyasi, harbiy xizmatchi o'z faoliyatining mazmun va ma'nosini tushunishi, u nima uchun xizmat qilayotganini anglashi zarurligiga e'tibor qaratilgan. Harbiy xizmatchi o'z faoliyatini ulug' maqsadga - xalq va vatan manfaatlarini himoya qilishga xizmat qilish sifatida anglashi kerak.

Sharq mutafakkirlari ta'limotida harbiy boshqaruvning adolat tamoyili markaziy o'rin tutadi. Farobiy va Beruniy asarlarida adolat nafaqat qonunlarga rioya qilish, balki yuqori axloqiy tamoyillar asosida harakat qilish sifatida talqin etiladi. Harbiy kuch adolat va hikmat bilan boshqarilmasa, u xavfli qurolga aylanishi va jamiyatga zarar yetkazishi mumkin. Shuning uchun harbiy xizmatchi doimo adolat yo'lida yurishi va o'z kuchidan faqat haq ishlar uchun foydalanishi lozim. Mutafakkirlar inson qadr-qimmatini kamsituvchi jamiyatga qarshi chiqishgan va doimiy urushlar hamda bosqinchilikka asoslangan jamiyatni adolatsiz, johil jamiyat sifatida qoralashgan.

Sharq mutafakkirlarining harbiy boshqaruvga oid qarashlarida madaniy-milliy xususiyatlarning ahamiyati alohida ta'kidlangan. Beruniy turli xalqlar harbiy

an'analari va jangchilar tarbiyasini qiyosiy tahlil qilib, har bir xalqning o'ziga xos harbiy madaniyatga ega ekanligini ko'rsatgan. Bu yondashuv zamonaviy harbiy psixologiyada madaniy tadqiqotlarning asosini tashkil etadi va harbiy rahbarlar tayyorlashda milliy-madaniy omillarni hisobga olish zarurligini anglatadi. Farobiy fikricha, inson o'z tabiatiga ko'ra hayotini tartibga keltirish, mustahkamlash va takomillashtirish uchun boshqa insonlarga muhtoj bo'ladi va yakka holda hech kim buning uddasidan chiqqa olmaydi. Inson shunday maxluqki, u faqat jamiyatda o'z ehtiyojlarini qondirishi va oliy ma'naviy darajaga ko'tarilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Sharq mutafakkirlari - Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino va Abu Rayhon Beruniyning harbiy boshqaruvda faollikning ijtimoiy-psixologik determinantlari haqidagi qarashlari bugungi kunda ham o'z ilmiy-amaliy ahamiyatini saqlab qolgan. Ularning yaxlit yondashuvlari, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni ta'kidlashlari, shaxs faolligini ijtimoiy tahlil qilishlari, psixologik omillarning ahamiyatini anglashlari va madaniy-milliy xususiyatlarni hisobga olishlari zamonaviy harbiy psixologiya va harbiy pedagogika uchun qimmatli nazariy-metodologik asos yaratadi. Sharq mutafakkirlari ta'limoti ko'rsatadiki, harbiy xizmatchi shaxsining faolligi nafaqat jismoniy kuch yoki harbiy texnika masalasi emas, balki insonning ichki ma'naviy kuchi, aqliy salohiyati, psixologik barqarorligi va ijtimoiy mas'uliyat hissining birligi asosida shakllanadi. O'zbekiston Respublikasida harbiy xizmatchilar tayyorlash tizimida milliy-ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirish uchun Sharq mutafakkirlarining ilmiy merosi mustahkam nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Мухитдинова Ф.А. Изучение наследие Абу Насра Фараби и актуальность для развития науки народов Центральной Азии // Мировая наука. – 2021. – №7(52). – С. 70-83.
2. Хайруллаев М.М. Мировоззрение Фараби и его значение в истории философии. – Ташкент: Фан, 1971. – С. 234-267.
3. B. Nurxonov "Abu Rayhon Beruniyning hayoti va ijodi" Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, vol. 1, no. 5, 2021, B. 875-882.

4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Abu_Ali_ibn_Sino.